

Prezident bandlik masalasining mahalladagi ijrosini ko'rdi



Davlatimiz rahbari Qarshi tumanidagi Yangi Batosh mahallasida bo'lib, aholi hayoti bilan yaqindan tanishdi.

Bu yerda 4 mingdan ziyod aholi yashaydi. Hudud obodonlashtirilib, tadbirkorlik rivojlanmoqda. To'qimachilik korxonasi, dorixona, minibank, oziq-ovqat do'konlari va xizmat ko'rsatish ustaxonalari aholi xizmatida.

Mahallada Kasanachilik markazi tashkil etilmoqda. Prezident unda yaratilayotgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Bu yerda tikuvchilik, charmdo'zlik, gilamchilik mahsulotlari tayyorlanishi bilan birga kasanachilarga ish ham o'rgatiladi. Hokim yordamchisi hamda xotin-qizlar faoli tomonidan ishsiz fuqarolar aniqlanib, qiziqish va xohishlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha ustalarga birlashtiriladi. Buyurtmalarni tayyorlashni to'liq o'zlashtirgan kasanachilarga uyida ishlashi uchun kerakli dastgoh hamda xomashyo beriladi. Buyurtmachi va kasanachi o'rtasida tuzilgan shartnomalar hokim yordamchisi tomonidan "Yagona mehnat milliy tizimi"ga kiritiladi.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi hunarmandlarni xomashyo bilan ta'minlash, aholi zich mahallalardagi kollejlarning ma'lum xonalarini kasanachilarga ajratish bo'yicha topshiriqlar berdi.

- O'zi hunar o'rganishning eng katta zamini - mahalla. Bu an'anamizdan foydalanib, kasanachilik asosida, ustoz-shogirdlik asosida yoshlarni hunarli qilish mumkin. Bu ularga, ayniqsa, xotin-qizlarga ham ma'naviy, ham moddiy kuch bo'ladi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Markaz Yangi Batoshdan tashqari unga tutash Batosh, Xoniyon, Taraqqiyot, Dasht, Jumabozor kabi mahallalarga ham xizmat qiladi. U to'liq ishga tushsa, qariyb 24 ming nafar aholi bandligida muhim omil bo'ladi.



Manba